

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY: MILLIY MA'RIFAT RAHNAMOSI
SIFATIDA

Malikova Go'zal Tursunpo'latovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va
jurnalistikasi kafedrasi o'qituvchisi
(+998930837007) guzalmalikova91@gmail.com

Boboxonova Feruza Muhiddinovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va
jurnalistikasi kafedrasi o'qituvchisi
(+998972803606) feruza231191@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada M.Behbudiylar tomonidan yozilgan ilm-ma'rifat, tarbiya va turli dolzarb ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan bir necha maqolalari tahlili berilgan. Ma'rifatparvar adib publitsistikasidan o'rinni olgan ayrim mulohazalar bugungi kun ruhi bilan qiyoslangan, oraliqda bir asrdan ortiq vaqt bo'lsa-da hanuz qimmatini yo'qotmagan tanqidlar, muammolar borasida atroflicha fikr yuritilgan. Eng muhimmi, Behbudiyning o'zbek jurnalistikasi rivojiga qo'shgan hissasi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: jadidlar, muxtoriyat, mustabid, hurriyat, Turkiston, maorif tizimi, kommunistik mafkura, bolsheviklar, sho'ro, publitsistik.

KIRISH. Behbudiylar matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozirgacha aniqlangan maqolalari soni 300 ga yetadi va xilma-xil mavzuda. Behbudiylar o'z maqolalarida ta'lim-tarbiya, diniy qarashlar, millat tafakkuri, o'sha davr bilan bo'qliq turli ijtimoiy-siyosiy muammo va kamchiliklar, jaholat, zulm, mustabidlikka qarshi uyg'oq fikr va ozodlik, erksevarlik g'oyalarini bayon etadi. E'tiborlisi shundaki, u tomonidan yozilgan ko'pgina maqolalar hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan, tilga olingan ayrim muammolar bugungi kunda ham jamiyatimizda uchrab turgani rost.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ma'rifatparvar

namoyonda ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etib, "xayoliy", „bu toifaga qo'shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik" deb yozgan edi [1]. O'zlikni anglashni muhim biladi: "Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni "qulq" "marquq" derlar" [2]. Shuningdek, 1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo'layotgan bir paytda o'lka xalqlarini birlikka chaqiradi.

Behbudiy "Jaholat dardlaridan" sarlavhali maqolasida kishilarning ismi buzib aytilishi, qisqartirilgan ismlarning do'kon peshtaxtalarida ilingan holatda turishi va o'sha davrda bu kamchilikni tuzatishni istagan kishilarga nisbatan norozilik kayfiyati bayon etilgan: "Ismimizni bilmaymiz! Nima uchun? Bizg'a o'rgatmabdurlar. Masalan, ismimiz Abdulsamad ekan, «Absamat», hatto, qishloqlarda «Apsat» derlar. (Afu buyurulsun, adabdan xorij bo'lsa-da, adabg'a da'vat etar.) Oti Yodgor ekan — «Jodigor», Lutfullo ekan — «Nutfullo» ataladur. (Astag'furullo!) G'alat atamoq sababi ila avom kotiblar tarafidan qozixona, valasnoyxona hujjatlarinda va hukumat mahkamalarinda ham shul tariqa g'alat va masxaralik holatinda yozilur. Hatto, shaharlarda, do'kon va korxonalarni tepasinda ruscha va musulmoniy xat ilan «Obdukodir», «Patxulla», «Sanatullo» («San'atullo»), «Obduraxmon» va mundan ham g'alatroq yozilib osilgan lavhalar bordur." [3] Bu holatdan tashvishga tushgan yozuvchi kyunib shunday yozadi: "Shunday g'alat keta bersa, yigirma — o'ttuz sana so'ngra xalq yanadan avomroq bo'lub, musulmon ismlari yana ziyodaroq buzilur. Do'kon va korxonalar tepasindagi unvonlar mundan ziyodaroq g'alat ismlarni shomil bo'lur." [4]. Afsuski, qariyb bir asr ilgari Behbudiy tomonidan qalamga olingan ushbu muammo hali ham muammoligicha qolmoqda. Ko'cha-ko'yda, turli yig'in va davralarda yoshlar tugul, yoshi ulug'lar tomonidan o'z farzandi, nevaralarining ismlarini buzib aytishlar, qisqartirib chaqirishlar uchrab turadi, vaholanki, bu holat ismning asl ma'nosiga putur yetkazishi bilan birga, turli hujjatlarda ismlar imlosining noto'g'ri yozilishiga olib kelmoqda. Misol uchun, Muhammadrahim – Mamarayim, Abdurazzoq – Abrazzoq, Muhammad – Mamat, Sherzod – Sheri tarzida allaqachon keng omma iste'moliga kirib ulgurdi, ba'zan esa Dilfuza, Dilobar, Dildora kabilarni

qisqartirib “Dilya” deya atashadiki, notanish inson ularning asl ismi qandayligini bilolmay boshi qotadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Jadidlar vakilining yoshlarga murojaat tarzida yozgan “Yoshlarga murojaat”, “Muhtaram yoshlarga murojaat”, “Ikki emas, to’rt til lozim”, “Ehtiyoji millat”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” kabi publisistik materiallari ham ayni kun mavzusi bilan hamohang. “Oyna” jurnali va “Samarqand” gazetasida chop etilgan yuqoridagi maqolalarida muallif til o’rganish ahamiyati, boshqa millat bolalari mакtabga bo’lgan bir paytda bizning yoshlар gadoylikda yurgani, to’ylarga sarf qilinayotgan pullarni ilm olishga sarflash lozimligi, millatning porloq kelajagi ayni shu yoshlarning ilm-tarbiyasida ekanini bot-bot ta’kidlaydi. “Hamvatanlarimiz mulkini sotib to’y qilganidek siz-da, hatto, lozim bo’lganda mulkingizni sotsangizda o’g’lingizni zamoncha o’qumoqig’ a sa’y qilsangiz. To’yga isrof qilinaturgon oqchalarni o’qumoq yo’lig’ a sarf qilsangiz! Zamoncha o’qutmoq tariqasidan boshqa maqolada arz qilinur.” [5]

Muallimlarga shogird tushib, millat yoshlарini xat-savodli qilish, jamiyatda savodli va ma’rifatli kishilarni ko’paytirish orqali erkka erishish haqida shunday yozadi: “Turkiston yoshlari muallim yetushdurmoqning chorasi topmoqlari lozimdir. Agar bukungi yoshlарimiz ushbu muhim vazifa va xizmatni ifo etmakga qasd eta boshlasalar, muallim yetushdurmoqni chorasi ham topilsa kerak. Chunonchi, Turkistonda muallim chiqormak uchun dorilmuallimin bo’lmasa ham, har shaharda usuli ta’limdan xabardor bir-ikki nafar muallim, albatta, bordur. Ana, muallimlikka tolib kishilarni alarning huzurig’ a yuborub, 3-4 oy zarfida usuli ta’limdan xabardor qildurmoq mumkindur.” [6]

Mahmudxo’ja Behbudiy bundan tashqari “Turkiston viloyatining gazetasi”da sermahsul ijod qilgan. Uning ushbu gazetaning 1907-yil 2-noyabr sonida e’lon qilingan maqolasida eskilik va yangilik orasida kurash bo’lishi hamisha bor narsa va bu kurashda oxir-oqibat yangilik ustun kelishi, g’olib bo’lishi muqarrardir, deb yozadi. Bu falsafiy xulosa uning usuli jadida va maorif sohasidagi shu kabi boshqa yangiliklarning istiqboliga komil ishonch bilan qaraganini bildiradi va boshqalarda ham bunday ishonchni mustahkamlaydi. Muallifning yozishicha, dunyodagi xalqlar yangilik va

ixtirolarni hammavaqt ishtiboh (shubha) va hadik bilan qarshi olgan. Negaki, “...birinchi martabag'a ul mamlakat xaloyiqi ul yangi ishlardin nafrat qilar, qo'rqar, chunki ani xos va manfaatidin hanuz bexabardurlar”. [7]

Behbudiy maorif tizimini isloh qilishda nazariyotchi sifatida fikr, g'oya beribgina qolmadi. U o'zi targ'ib etgan tartib va usul asosida ta'lim tizimini amaliy jihatdan shakllantirish va qaror toptirishga ham katta hissa qo'shdi. Bu, avvalo, uning usuli jadida maktablaridagi ta'lim mazmuni, usuli, dasturi kabi muhim masalalarini muhokama etish, ularni kamchilik va nuqsonlardan xoli qilish uchun faol ishtirok etganida ko'rinsa, ikkinchidan, savtiya maktablari uchun darsliklar yaratish, jamoatchilik ko'z o'ngida usuli jadida maktablari o'quvchilarining imtihonlarini uyushtirishdagi faolligida namoyon bo'lgan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning “Ikki emas, to'rt til lozim” maqolasida (“Oyina”, 1913 yil 1-son) masala mahalliy aholining turmush sharoitidan kelib chiqilgan holda qo'yilgandi. U musulmon qavmlarining farzandlari har jihatdan, tillarni bilish nuqtai nazaridan ham bekamu ko'st bo'lishlarini istardi.

Behbudiy hazratlari Turkiston va unda yashayotgan xalqlarning boy madaniy o'tmishi bilan faxrlandi, betakror osori atiqlari, ya'ni tarixiy-madaniy yodgorliklarini ko'rib iftixor qildi, buyuk allomlari dunyo ilmlari xazinasidaga qanday bebaho hissa qo'shganligini katta g'urur ila yozdi. Uning “Samarqand” gazetasi, “Oyina” jurnalida bosilgan ushbu mavzudagi maqollarida, geografiya va islom tarixiga oid kitoblarida bu tuyg'u yorqin aks etgan. Publitsistning “Sayohat xotiralari” yo'l ocherkini o'qigan kishi bunday hislarning yolqinlarini sezish mumkin. Aksincha, dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, hamyurtlari “turkistonlik” degan nomga noloyiq ish qilayotganini ko'rsa, osori atiqalarning qarovsiz holda yotgani yoki buzilayotganiga ko'zi tushsa, bebaho madaniy va ilmiy xazinalarimizga kishilarning loqayd qaraganini sezsa, u juda qattiq iztirob bilan yozadi.

1917-yilning noyabrida Qo'qon shahrida e'lon qilingan Turkiston muxtoriyatini Behbudiy zo'r shodlik bilan kutib oldi. Muxtoriyatning e'lon etgan Turkiston musulmonlarining to'rtinchi favqulotda s'ezdi qatnashchisi bo'lganidan faxrlandi. Negaki, Turkiston aholisining hayotiy orzusi bo'lgan muxtoriyatning amalgा

oshirilishi uchun dastlabki qadam tashlanganini ko'rgan Behbudiy hazratlari sevinchini ichiga sig'dirolmasdi. Uning "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 27-dekabr sonlarida shunday sevinchli mujda bilan boshlanadi: "27 no'yabrdan Xo'qandda Turkiston muhtoriyati umumiy musulmon isyezdig'a e'lom qilindi. Muborak va xayrli bo'lsun! Kamina ham bu majlisda bo'lushum uchun iftixor etaman. Yashasun Turkiston muhtoriyati!" [8]

Afsuski bu xursandchilik bardavom bo'lmadi, vaqt o'tib o'lkada vujudga kelgan yangi voqelik – sho'rolar hokimiyati o'rnatilgandan so'ng ham xalqi uchun bir oz bo'lsada yengillik bo'lishi yo'lida harakat qilishdan o'zini tortmadi. 1918- yilning iyul oyida Toshkentda o'tgan maorif xodimlarining qurultoyiga kelganda, bolsheviklar mamlakat Ichida yurgizayotgan siyosat yuzasidan Turkiston Avtonom Respublikasining boshlig'i Tobolin huzuriga kirib, g'alla, askar olish, tazminoti harbiya, yer va suv masalalarida mahalliy aholi manfaatlari nuqtai nazaridan fikrini bildiradi. Ammo bolsheviklar har qanday taklifni ma'qullagandek ko'rinsa-da, o'zlarining rejalaridan hech qachon qaytmaganlar. Tobolin ham Mahmudxo'ja Behbudiydek mahalliy xal orasida obro'si katta odamning takliflarini shunchaki ma'qullagandek ko'ringan. (Behbudiy takliflarini Tobolin "ma'qullaganini" ko'rgach, "Man bildimki, ma'qul so'zni Bolshevik hukumati eshita ekan..." deb yozadi.) [9] Aslida Tobolining Behbudiy hazratlari fikrlariga mutlaqo ahamiyat bermagani aniq. Chunki, Behbudiy taklif etgan fikrlar bolsheviklarning hayotiy deb bilgan iqtisodiy siyosatlariga mohiyatan zid edi. Garchi Behbudiyning takliflari aqlga muvofiq bo'lsada, bolsheviklarning yurgizadigan siyosatiga zidligi ko'rinish turibdi. Uning barcha masalalar yuzasidan kiritgan takliflari ham har qancha maqbul va ma'qul bo'lsada, ularni prinsip nuqtai nazaridan ham qabul qilishmasdi.

Bu maqola Behbudiyning matbuotdagi eng so'nggi chiqishlaridan edi. U bolsheviklarning qilayotgan ishlari insof va diyonatga to'g'ri kelmayotganini dildan his etar, shunday bo'lsa-da, xalqiga yengillik bo'lishi uchun ularning insofga kelishlariga umid bog'lashga o'zini majbur etardi. Ammo 1919-yil yanvar oyida bolsheviklarga qarshi isyon ko'targan Osipovning yengilganini eshitib, undagi so'nggi ilinjga ham darz ketdi. U Parijda ish boshlagan davlatlararo sulh konferensiyasi

minbaridan foydalanish uchun ikki hammaslagi bilan yo'lga tushadi, biroq uning har bir harakatini kuzatayotgan sho'ro hokimiyatining maxsus xizmat xodimlari bunga yo'l berishmaydi. Shu tariqa Behbudiy va yo'ldoshlari 1919-yilning martida GPU xodimlari tomonidan mahv etiladi.

XULOSA. Atoqli siymo Mahmudxo'ja Behbudiy mulohazali va hayotiy publitsistik asarlari va samarali muharrirlik faoliyati bilan o'zbek jurnalistikasi tarixidan o'ziga munosib o'rinn egalladi. Millat va milliy masalalalar tahlil etilgan ushbu maqolada izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ma'rifatparvar jadidlar, jumladan Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy o'z publitsistik asarlarida millat va milliyat masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Adib publitsistikasida millatning o'sha davrdagi ahvolini isloh qilish, uni uyg'otish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga olib chiqish kabi dolzarb muammolar ko'tarib chiqildi. Mutafakkirning "Bizni kemirguvchi illatlar", "Muhtaram yoshlarga murojaat", "A'molimiz yoinki murodimiz", "Ikki emas, to'rt til lozim" kabi maqolalarida bu muammo, ayniqsa, chuqur tahlil etildi.

2. Mahmudxo'ja Behbudiy maqolalari tahlilida milliy g'oya – millatga o'zligini anglatish, uni taraqqiy etgan xalqlar darajasiga yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Vatan va millat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan illatlar haqidagi fikrlar keltirildi va ularning bugungi kunda ham dolzarbliji isbotlandi.

4. Behbudiy qalamiga mansub, maqolada nomi keltirilgan publitsistik asarlari orqali tarixga murojaat, xalqimizning buyuk o'tmishini o'rganish, moziyda Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlagan jihatlardan saboq olish, shu orqali rivojlangan millatlar darajasiga ko'tarilish kabi masalalar keng yoritdi.

5. Boshqa jadidlar singari Mahmudxo'ja Behbudiy ham milliyat deganda milliy til, milliy qadriyatlar, uning sha'ni, sharafi kabi masalalarni tushundi. O'sha davr sharoitidan kelib chiqib, ikki emas to'rt til – turkiy, forsiy, arabiyy va rusiy zarurligi haqida yozish barobarida milliy til ravnaqi uchun kuyindi. "Sart so'zi majhuldir", "Sart so'zi ma'lum bo'lindi" singari publitsistik maqolalarida shonli o'tmishga ega turkiy millatni "sart" deb atashlariga e'tiroz bildirdi. Adibning bu boradagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Behbudiy. „Xayrul umuri avsatuh” — „Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidir”, „Xurshid” gazetasi, 1906-yil, 6-son
2. M.Behbudiy. „Sart so‘zi majhuldur” – „Oyna” jurnali, 1914-yil, 23-son
3. M.Behbudiy “Jaholat dardlaridan” – „Oyna” jurnali, 1914-yil, 18-son, 318—319-betlar.
4. M.Behbudiy “Yoshlarg’ a murojaat” – “Oyna” jurnali, 1914-yil, 21-son, 390—391-betlar.
5. M. Behbudiy “Muhtaram yoshlarg’ a murojaat” – “Oyna” jurnali, 1914- yil, 41-son, 970—972-betlar.
6. B. Do’stqorayev “O’zbekiston jurnalistikasi tarixi”. Darslik. T.2009. 319-348-betlar.